



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL

Nodira Odiljonovna Toliboyeva

PhD, Associate Professor,

Department of History of Uzbekistan

Uzbekistan State World Languages University

E-mail: n.toliboeva@uzswlu.uz

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: education system, human capital, continuous education, educational reforms, competitiveness, labor market, innovative development.

Received: 11.02.26

Accepted: 12.02.26

Published: 13.02.26

Abstract: This article analyzes the development of the education system and the processes of human capital formation in Uzbekistan from both historical and contemporary perspectives. Using a comparative approach, the research examines the centralized and ideological characteristics of the education system during the Soviet period, as well as the fundamental shifts in educational policy during the years of independence.

The study provides a scientific analysis of the impact of independence-era educational reforms on human capital growth, the formation of the continuous education system, the expansion of higher education enrollment, and the integration processes between the education system and the labor market. Furthermore, existing challenges in the education sector and their influence on the development of human capital are identified. The findings of the research indicate that advancing the education system in Uzbekistan is a crucial strategic factor for strengthening human capital and ensuring sustainable socio-economic progress.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

Nodira Odiljonovna Toliboyeva

PhD, dotsent

O'zbekiston tarixi kafedrası

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, inson kapitali, uzluksiz ta'lim, ta'lim islohotlari, raqobatbardoshlik, mehnat bozori, innovatsion rivojlanish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ta'lim tizimi rivoji va inson kapitalini shakllantirish jarayonlari tarixiy hamda zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet davrida ta'lim tizimining markazlashgan va mafkuraviy xususiyatlari hamda mustaqillik yillarida ta'lim siyosatida yuz bergan tub o'zgarishlar qiyosiy yondashuv asosida o'rganilgan. Maqolada mustaqillik davrida amalga oshirilgan ta'lim islohotlarining inson kapitali rivojiga ta'siri, uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi, oliy ta'lim qamrovining kengayishi hamda ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, ta'lim sohasida mavjud muammolar va ularning inson kapitalini rivojlantirish jarayoniga ta'siri aniqlangan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish inson kapitalini mustahkamlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim strategik omili ekanligini ko'rsatadi

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Нодира Одилжоновна Толибоева

PhD, доцент

Кафедра истории Узбекистана

Узбекский государственный университет мировых языков

E-mail: n.toliboeva@uzswlu.uz

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: система образования, человеческий капитал, непрерывное образование, образовательные реформы, конкурентоспособность, рынок труда, инновационное развитие.

Аннотация: В данной статье анализируются развитие системы образования в Узбекистане и процессы формирования человеческого капитала с исторической и современной точек зрения. В исследовании на основе сравнительного подхода рассматриваются централизованные и идеологические особенности системы образования в

советский период, а также коренные изменения в образовательной политике в годы независимости. В статье научно анализируется влияние образовательных реформ, реализованных в период независимости, на развитие человеческого капитала, формирование системы непрерывного образования, расширение охвата высшим образованием, а также процессы интеграции системы образования с рынком труда. Кроме того, выявлены существующие проблемы в сфере образования и их влияние на развитие человеческого капитала. Результаты исследования показывают, что развитие системы образования в Узбекистане является важным стратегическим фактором укрепления человеческого капитала и обеспечения устойчивого социально-экономического развития.

Kirish. O'zbekistonda ta'lim tizimi va inson kapitalini rivojlantirish masalalari bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Globallashuv sharoitida mamlakatning raqobatbardoshligi, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti, avvalo, inson kapitalining sifati bilan belgilanadi. Shu bois ta'lim tizimini takomillashtirish, uning mazmuni va samaradorligini oshirish inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tarixiy jihatdan qaranganda, O'zbekistonda ta'lim tizimi turli davrlarda turlicha maqsad va vazifalarni bajarib kelgan. Xususan, sovet davrida ta'lim siyosati asosan markazlashgan boshqaruv, mafkuraviy yo'naltirilganlik hamda iqtisodiyot ehtiyojlariga mos mehnat resurslarini tayyorlashga qaratilgan edi. Mustaqillik yillarida esa ta'limga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi: shaxs manfaatlari, ijodiy tafakkur, tashabbuskorlik va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari ta'lim siyosatining markaziga chiqdi [1].

Mustaqillik davrida amalga oshirilgan ta'lim islohotlari inson kapitalini rivojlantirishning huquqiy, institutsional va mazmuniy asoslarini shakllantirdi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uzluksiz ta'lim tamoyilini joriy etish, oliy ta'lim qamrovini kengaytirish hamda ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish inson kapitalining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda [2].

Zamonaviy geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda davlatlarning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar yoki qulay geografik joylashuv bilan emas, balki

inson kapitalining sifati, intellektual salohiyat va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi bilan belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, inson kapitali milliy xavfsizlikni ta'minlash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish va global maydonda munosib o'rin egallashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, jamiyat hayotining barcha sohalarida kechayotgan transformatsiya jarayonlarining markazida inson omili va uning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish masalasi turibdi. "Inson qadri uchun" tamoyilining davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etishi uning amaliy ifodasi sifatida sifatli va zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Mamlakatda ilgari surilgan Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish g'oyasi mazmunan uzoq muddatli strategik maqsadlarni mujassam etgan milliy taraqqiyot konsepsiyasi hisoblanadi. Ushbu tarixiy vazifani amalga oshirishning asosiy sharti sifatida ta'lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, kreativ fikrlovchi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu yondashuv davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan strategik qarashlarda ham o'z ifodasini topgan [3].

Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, Sharq uyg'onish davrlari — Birinchi va Ikkinchi Renessans jarayonlarining asosida ham ilm-fan va ma'rifatga bo'lgan yuksak e'tibor yotgan. Zamonaviy islohotlarning o'ziga xos jihati esa ta'lim tizimini faqat tashkiliy va infratuzilmaviy jihatdan yangilash bilan cheklanmay, balki uning mazmun-mohiyatini takomillashtirish, o'qitish metodikalarini zamonaviy talablarga moslashtirish hamda pedagog kadrlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini oshirishga yo'naltirilganidadir. Shu jihatdan, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar inson kapitalini rivojlantirishning strategik omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimi va inson kapitalini rivojlantirish masalalari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'limning sifati nafaqat bilimli kadrlar tayyorlash, balki jamiyatning innovatsion salohiyatini oshirish, mehnat bozori talablariga moslashuvchan inson kapitalini shakllantirish imkonini beradi. Shu bois O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadqiqotda ta'lim tizimining inson kapitali rivojiga ta'siri tarixiy va zamonaviy kontekstda tahlil qilinadi. Sovet davri ta'lim siyosati bilan mustaqillik yillaridagi ta'lim islohotlari qiyosiy yondashuv asosida o'rganilib, bugungi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimli tahlil va qiyosiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xususan, sovet davrida ta'lim tizimining tashkil etilishi va

funksional vazifalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi, mustaqillik davrida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar esa tizimli yondashuv asosida o'rganildi.

Shuningdek, ta'lim tizimi bilan inson kapitali rivoji o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda mantiqiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda ochiq statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar tahlili asosiy empirik baza sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sovet davrida O'zbekistonda ta'lim tizimi qat'iy markazlashgan boshqaruv asosida faoliyat yuritgan bo'lib, uning asosiy vazifasi sanoat va qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun standartlashtirilgan mehnat resurslarini tayyorlashdan iborat bo'lgan. Ta'lim mazmunida mafkuraviy komponent ustuvor ahamiyat kasb etib, inson kapitali individual intellektual rivojlanish subyekti sifatida emas, balki iqtisodiy tizimning funksional elementi sifatida talqin etilgan. Natijada ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan.

Mustaqillik yillarida ta'lim tizimiga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi va inson kapitali rivojiga yo'naltirilgan yangi konseptual asoslar shakllandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarish va kreativ fikrlashni rivojlantirish belgilandi. Xususan, oliy ta'lim qamrovining bosqichma-bosqich kengayishi, yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi hamda xorijiy universitetlar filiallarining ochilishi inson kapitali sifatini oshirishga qaratilgan muhim amaliy natija sifatida namoyon bo'lmoqda [4].

Shuningdek, uzluksiz ta'lim tamoyilining joriy etilishi natijasida maktabgacha ta'limdan oliy va oliy ta'limdan keyingi bosqichlargacha bo'lgan yagona ta'lim zanjiri shakllanmoqda. Bu jarayon inson kapitalini faqat dastlabki bilimlar bilan emas, balki butun hayoti davomida rivojlantirish imkonini beruvchi mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Ta'lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarining joriy etilishi esa ta'lim natijalarini nazorat qilish va ularni mehnat bozori talablariga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, inson kapitalini rivojlantirish masalasi Markaziy Osiyo sharoitida, avvalo, yoshlar bilan bog'liq ijtimoiy strategiyalar orqali namoyon bo'lmoqda. Mintaqada yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy faolligi va bandligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar inson kapitalining barqaror shakllanishida muhim omil sifatida qaralmoqda. Xususan, ta'lim tizimi orqali yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, fuqarolik faolligi va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki jamiyat barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatlarda Markaziy Osiyoda inson kapitalini rivojlantirish jarayonining ijtimoiy va strategik o'lchamlarini yaqqol namoyon etadi [5].

UNESCO tadqiqotida keltirilgan statistik ma'lumotlar Markaziy Osiyoda yoshlar salohiyatini rivojlantirish jarayonining holati va murakkabligini aniq aks ettiradi. Xususan, "NEET" (ta'limda, bandlikda yoki kasbiy tayyorgarlikda bo'lmagan yoshlar) ko'rsatkichlari) mamlakatlar kesimida sezilarli farq bilan namoyon bo'ladi. Tadqiqotda 15-24 yoshdagi NEET darajasi Qirg'izistonda 28 % atrofida, Tojikistonda esa 32 % ga yaqin ekani qayd etiladi. Bu esa yoshlar bandligidagi nomutanosiblik va ta'lim hamda mehnat bozori o'rtasidagi uzilishlarni ko'rsatadi [6].

Bundan tashqari, ta'lim sifati va ta'limdan keyingi bandlik bilan bog'liq ma'lumotlarda aniq farqlar bor. Masalan, UNESCO hisobotiga ko'ra, Qozog'istonda oliy ta'limga kirish darajasi yoshlar populyatsiyasi ichida baland bo'lsa-da, ularning faqat taxminan 45 % i mehnat bozorida o'z sohasiga mos ish topadi, qolgan qismi yoki nomutanosib kasblarda ishlaydi yoki mutatsiya jarayoniga duch keladi.

UNESCO tahliliga ko'ra, O'zbekiston yoshlari orasida oliy ta'lim qamrovi tobora ortib bormoqda, biroq uning mehnat bozoridagi natijaviy bandlik ko'rsatkichlari boshqa davlatlar bilan qiyoslaganda sezilarli darajada farq qilmoqda. Masalan, O'zbekiston bo'yicha 15-24 yoshdagi yoshlar orasida oliy ta'limda o'qiyotganlarning bandlik darajasi 55 % atrofida bo'lib, bu ko'rsatkich Qirg'iziston va Tojikiston bilan solishtirganda ancha yuqori, ammo Qozog'iston bilan taqqoslaganda biroz past bo'lgan.

Tadqiqotda yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik ishtiroki bilan bog'liq statistik holat ham keltiriladi. Xususan, mintaqa davlatlarida yoshlar orasida ijtimoiy tashabbuskorlik darajasi 30-40 % oralig'ida bo'lib, fuqarolik jamiyatida faol qatnashayotganlar soni nisbatan past bo'lishi qayd etiladi. Bu holat yoshlar salohiyatini to'laqonli amalga oshirish yo'lida ijtimoiy institutlar bilan integratsiyaning hali ham to'liq emasligini ko'rsatadi [7].

Bundan tashqari, UNESCO hisobotida mehnat migratsiyasi bilan bog'liq raqamlar ham keltiriladi. Masalan, Tojikiston va Qirg'izistonda yoshlar orasida chetdagi ish izlash ehtiyoji yuqori bo'lib, ularning 20 % atrofida qismini xalqaro migratsiyaga chiqishga undaydi. Bu holat inson kapitalining mintaqada milliy iqtisodiyot doirasida to'liq ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida tahlil qilinadi.

Quyidagi jadval Markaziy Osiyo davlatlarida yoshlar holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlilini aks ettiradi:

Indikator	O'zbekiston	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston
NEET (15–24)	25 %	22 %	28 %	32 %
Oliy ta'limda o'qiyotganlarning bandligi	55 %	45 %	55 %	50 %
Yoshlar orasida ijtimoiy faol ishtirok	35 %	38 %	33 %	30 %

Xalqaro ehtiyoji	migratsiya	15 %	18 %	20 %	22 %
---------------------	------------	------	------	------	------

Mazkur raqamlar Markaziy Osiyoda yoshlarning ta'lim tizimidagi ishtiroki va mehnat bozoridagi moslashuvi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa inson kapitalini shakllantirish jarayonining mintaqa davlatlarida turlicha kechayotganidan darak beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2017-yilda O'zbekistonda ta'lim sohasiga yo'naltirilgan davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 6,41 foizini, umumiy davlat xarajatlarining esa 19,96 foizini tashkil etgan. Shuningdek, 2016-yilda 15–24 yoshdagi yoshlar o'rtasida savodxonlik darajasi 100 foizga yetgani va bu ko'rsatkich ayollar hamda erkaklar o'rtasida teng bo'lgani qayd etiladi [8].

Tadqiqot natijalari ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya jarayonlari kuchayib borayotganini ham ko'rsatdi. O'quv dasturlariga amaliy ko'nikmalarni kiritish, dual ta'lim elementlarini joriy etish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirishga qaratilgan choralar inson kapitalining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida qator muammolar ham aniqlandi. Xususan, ta'lim sifati hududlar kesimida bir xil darajada emasligi, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining barcha ehtiyojlarni to'liq qamrab olmasligi hamda ta'lim mazmunining mehnat bozori talablariga moslashuvi yetarli darajada tez amalga oshmayotgani inson kapitalini rivojlantirish jarayonini sekinlashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur kamchiliklar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish strategiyasini chuqurlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Mavzuning tahlili. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish jarayoni inson kapitalini shakllantirishning strategik omiliga aylanib bormoqda. Ta'limdagi sifat o'zgarishlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, innovatsion salohiyati va intellektual rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson kapitali nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli barqaror rivojlanishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida aniqlanishicha, mustaqillik davrida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan konseptual yondashuvning shakllanishiga xizmat qilgan. Xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uzluksiz ta'lim tamoyilini joriy etish va oliy ta'lim qamrovini kengaytirish orqali shaxsning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Bu holat inson

kapitaliga bo'lgan munosabatning miqdoriy emas, balki sifat jihatidan o'zgarib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida ta'lim tizimini inson kapitali rivoji bilan to'liq uyg'unlashtirish yo'lida mavjud muammolar ham namoyon bo'ldi. Jumladan, ta'lim mazmunining mehnat bozori talablariga moslashuvi barcha yo'nalishlarda bir xil sur'atda kechmayotgani, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida hududiy tafovutlarning saqlanib qolayotgani ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat inson kapitalining iqtisodiy samaradorligini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy o'qitish metodlarini keng joriy etish masalasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Garchi so'nggi yillarda raqamli ta'lim elementlari va masofaviy ta'lim shakllari joriy etilayotgan bo'lsa-da, ularning barcha ta'lim bosqichlarida bir xil samaradorlik bilan qo'llanilayotgani haqida hali to'liq xulosa chiqarish mushkul. Shu jihatdan, ta'lim sohasidagi islohotlar inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz va tizimli jarayon sifatida davom ettirilishi lozim.

Umuman olganda, O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati inson kapitalini shakllantirishning muhim strategik omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlar ta'limni jamiyat taraqqiyotining bosh omillaridan biri sifatida qarash zaruratini asoslab beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish jarayoni inson kapitalini shakllantirish va mustahkamlashning strategik omiliga aylanib bormoqda. Globallashuv sharoitida mamlakatning raqobatbardoshligi va barqaror taraqqiyoti bevosita ta'lim sifati hamda inson kapitalining intellektual salohiyati bilan uzviy bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sovet davrida ta'lim tizimi asosan markazlashgan boshqaruv va mafkuraviy yondashuvga tayangan bo'lsa, mustaqillik yillarida ta'lim siyosatida shaxs manfaatlari, ijodiy tafakkur va tashabbuskorlikni rivojlantirishga qaratilgan tub burilish yuz berdi. Bu holat inson kapitaliga bo'lgan munosabatning miqdoriy emas, balki sifat jihatidan o'zgarib borayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mustaqillik davrida amalga oshirilgan ta'lim islohotlari uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish, oliy ta'lim qamrovini kengaytirish hamda ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish orqali inson kapitalining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining kuchayishi inson kapitalining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgan muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar – ta’lim sifati hududlar kesimida notekisligi, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish zarurati hamda ta’lim mazmunining mehnat bozori talablariga moslashuvdagi sustlik – ta’lim tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Bu holatlar inson kapitalini rivojlantirish jarayonining izchil va tizimli yondashuvni talab qilayotganini ko’rsatadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati inson kapitalini mustahkamlash, jamiyatning innovatsion salohiyatini oshirish va uzoq muddatli barqaror taraqqiyotni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot natijalari ta’lim sohasidagi islohotlarni inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi bilan uzviy bog‘liq holda davom ettirish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Inoyatov X.Sh. O‘zbekistonda Oktyabr revolyutsiyasi. – Toshkent: Fan, 1967. – B. 88-92.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Yangi tahrir, 2020-yil. [Elektron manba] // <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari. 2017-2023-yillar.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Yangi tahrir, 2020-yil. [Elektron manba] // <https://lex.uz/docs/-5013007>.
5. Youth of Central Asia: Challenges for Peacebuilding. A Comprehensive Research Review. UNESCO. – Paris, 2021. [Elektron manba] // <https://unesdoc.unesco.org/search/6c88ffea-d215-4950-8950-a743924948e9>.
6. UNESCO. Youth of Central Asia: Challenges for Peacebuilding. A Comprehensive Research Review. – Paris, 2021. [Elektron manba] // <https://unesdoc.unesco.org/search/6c88ffea-d215-4950-8950-a743924948e9>.
7. UNESCO. Youth of Central Asia: Challenges for Peacebuilding. A Comprehensive Research Review. – Paris, 2021. [Elektron manba] // <https://unesdoc.unesco.org/search/6c88ffea-d215-4950-8950-a743924948e9>.
8. Erekesheva L. Молодежь Центральной Азии: Вызовы миростроительству. Комплексный исследовательский обзор. UNESCO. – Paris, 2022. – С.136. // <https://unesdoc.unesco.org/search/6c88ffea-d215-4950-8950-a743924948e9>.